

HAYVONOT DUNYOSINI MUHOFAZA QILISH USULLARI

Mashrabova Munisabonu

Andijon Davlat Pedagogika Instituti

Biologiya yo'nalishi 2- kurs talabasi.

Nizomova Bashoratxon Begaliyevna

Ilmiy rahbar. Andijon Davlat Pedagogika Instituti,

biologiya fanlari bo'yicha PhD

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17715633>

Annotatsiya. Ushbu maqolada hayvonot dunyosining ahamiyati, uni muhofaza qilishning ekologik, huquqiy, ilmiy va xalqaro asoslari tahlil etilgan.

Maqolada O'zbekiston Respublikasi "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish to'g'risida"gi qonuni, xalqaro konvensiyalar, qo'riqxonalar faoliyati hamda biologik xilma-xillikni saqlashdagi dolzarb masalalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Biologik xilma-xillik, ekologiya, qonun, qo'riqxona, xalqaro tajriba, tabiiy muhit.

Annotation. This article analyzes the significance of fauna, the ecological, legal, scientific and international foundations of its protection.

The article covers the law of the Republic of Uzbekistan "On the protection of wildlife", international conventions, the activities of reserves and current issues in the conservation of biological diversity.

Keywords: Biodiversity, ecology, law, conservation, international expertise, natural environment.

Аннотация. В данной статье анализируется значение животного мира, экологические, правовые, научные и международные основы его охраны.

В статье освещаются закон Республики Узбекистан «Об охране животного мира», международные конвенции, деятельность заповедников и актуальные вопросы в области сохранения биологического разнообразия.

Ключевые слова: Биоразнообразие, экология, право, охрана природы, международная экспертиза, природная среда.

Tabiat inson hayotining ajralmas qismi bo'lib, uning barcha boyliklari, jumladan, hayvonot dunyosi insoniyat uchun beqiyos ahamiyatga ega.

Hayvonlar tabiiy muvozanatni saqlash, oziq zanjirida barqarorlikni ta'minlash va ekologik tizimlarni qo'llab – quvvatlashda muhim o'rin tutadi.

Biroq so'nggi yillarda inson faoliyati, urbanizatsiya, iqlim o'zgarishi va biologik resurslardan noo'rin foydalanish tufayli ko'plab hayvon turlari yo'qolib ketish xavfi ostida qolmoqda.

Shuning uchun hayvonot dunyosini muhofaza qilish masalasi bugungi kunda global va milliy miqyosdagi eng dolzarb ekologik muammolardan biridir.

